

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-mart oylarida, Namangan viloyatida jami 2476,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida, xususan, Namangan shaharda (555,8 mlrd so'm), Pop tumanida (147,1 mlrd so'm) va Chortoq tumanida (134,7 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	2476,5	108,7
Mingbuloq tumani	68,4	100,0
Kosonsoy tumani	105,3	105,5
Namangan tumani	104,9	101,6
Norin tumani	72,5	100,9
Pop tumani	147,1	154,6
To'raqo'rg'on tumani	87,8	104,1
Uychi tumani	125,0	108,6
Uchqo'rg'on tumani	117,6	104,2
Chortoq tumani	134,6	100,1
Chust tumani	86,6	111,9
Yangiqo'rg'on tumani	109,2	105,1
Namangan shahar shundan	555,8	108,9
Davlatobod tumani	236,0	118,7
Yangi Namangan tumani	139,2	117,2
Taqsimlanmagan	761,7	114,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

**II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari**


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 83,6 % i yoki 2070,3 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **155,3** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 7,5%*;

Kichik korxona va mikrofirmalar – **795,4** mlrd so'm *hamda ulushi – 38,4 %*;

Norasmiy sektor – **1119,6** mlrd so'm *hamda ulushi – 54,1 %*.

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Namangan shahar (433,6 mlrd so'm), Pop tumani (129,2 mlrd so'm), Uchqo'rg'on tumani (106,6 mlrd so'm) va Yangiqo'rg'on tumani (105,8 mlrd so'm) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Yangi qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 168,7 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 147,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,8 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,6 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamayib 38,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga ko'payib, 59,3 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Namangan shahar (76,2 %), Pop tumani (73,8 %) va Chortoq tumani (74,0 %) kuzatildi.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 47,3 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % punktga kamaydi 52,7 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Pop tumani (9,6 %), Chortoq tumani (9,4 %) va Uychi tumani (9,1 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,0 % punktga ko'paygan va 7,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 92,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,0 % kamaygan.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Namangan shahar (16,6 %), Pop tumani (16,5 %) va Chortoq tumani (15,6 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 182,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 154,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,2 % ga ko'payib, 7,4 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,0 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni tashkil etgan holda 1164,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 45,6 % ni yoki 1129,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi. Shundan 957,5 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 162,1 mlrd so'mni va 98,5 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 10,0 mlrd so'mni va 109,2 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	182,9	1164,0	1129,6	154,7	105,4	106,9
Mingbuloq tumani	1,9	46,6	19,9	34,4	104,9	108,1
Kosonsoy tumani	0,5	46,0	58,8	17,4	111,9	105,1
Namangan tumani	2,7	64,2	37,9	19,3	120,2	106,6
Norin tumani	0,5	27,5	44,5	9,5	120,5	100,7
Pop tumani	72,6	50,2	24,2	1878,5	71,5	114,8
To'raqo'rg'on tumani	1,7	58,3	27,9	79,6	102,3	110,4
Uychi tumani	4,7	87,6	32,7	187,4	104,8	112,9
Uchqo'rg'on tumani	8,0	66,7	42,9	34,0	134,8	107,9
Chortoq tumani	1,9	81,9	50,9	18,0	105,6	109,3
Chust tumani	4,1	36,4	46,1	207,6	110,5	108,6
Yangiqo'rg'on tumani	2,5	50,5	56,1	67,7	99,4	113,9
Namangan shahar	47,4	450,1	58,3	209,6	105,3	96,6
<i>shundan</i>						
Davlatobod tumani	19,7	209,4	7,0	905,8	110,2	104,3
Yangi Namangan tumani	20,9	109,9	8,4	-	99,4	102,6
Taqsimlanmagan	34,4	98,0	629,4	169,9	105,1	106,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Pop tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 18,5 marta), Namangan shaharda (209,6 %) va Chust tumanida (207,6 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 134,8 %), Norin tumanida (120,5 %) va Namangan tumanida (120,2 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Pop tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 114,8 %), Yangiqo'rg'on tumanida (113,9 %) va Uychi tumanida (112,9 %) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.